Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/13

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV[a]

[a] *Research Fellow*
Imam Termizi International Scientific Research Center
3, Shimoliy Darvoza Street, Termez, 190100, Uzbekistan
E-mail: abdullazizabduvaxidov@gmail.com

ZAMONAVIY TA'LIMDA MA'RIFATNING O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada «ta'lim» va «ma'rifat» tushunchalarining mazmun-mohiyati, o'zaro bog'liqligi hamda farqlari falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Mazkur tushunchalar kundalik hayotda ko'pincha sinonim sifatida qo'llanilsa-da, ularning mazmuni va ijtimoiy vazifalari o'rtasidagi tafovutlar asoslab beriladi. Ma'rifat shaxs va jamiyatning madaniy yetukligi, ma'naviy kamoloti, intellektual salohiyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi jarayon sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, uning johillik, xurofot va soxta bilimdonlikka qarshi kurashdagi ahamiyati yoritiladi.*

Maqolada zamonaviy jamiyatda ma'rifatning imkoniyatlari, uni rivojlantirishdagi muammolar hamda tarixiy davrlarga xos ma'rifiy qarashlar tahlil qilinadi. XVII–XVIII asrlarda shakllangan ma'rifatparvarlik tamoyillari va bugungi davr qarashlari o'rtasidagi umumiylik va farqlar ochib beriladi. Shuningdek, ma'rifatning tanqidiy fikrlash, ilmiy dunyoqarash va ma'naviy kamolotni rivojlantirishdagi o'rni asoslanadi. Ma'rifatni faqat sxolastik qarashlarni inkor etish bilan cheklamasdan, keng qamrovli ijtimoiy, madaniy va falsafiy hodisa sifatida o'rganish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *Ma'rifat, ta'lim, falsafa, fan, tanqidiylik, ommalashtirish, ta'lim falsafasi, yangi ma'rifat.*

THE ROLE OF ENLIGHTENMENT IN MODERN EDUCATION

Abstract. *This article examines the essence of the concepts of "education" and "enlightenment," their interrelationship, and their differences from a philosophical perspective. Although these concepts are often used interchangeably in everyday life, the article identifies distinctions in their meanings and social functions. Enlightenment is interpreted as a process that promotes the cultural maturity, spiritual development, intellectual potential, and independent thinking of individuals and society. The article also highlights its importance in combating ignorance, superstition, and pseudo-intellectualism.*

Furthermore, the article analyzes the opportunities for promoting enlightenment in contemporary society, the challenges hindering its development, and the educational perspectives characteristic of different historical periods. It explores the similarities and differences between the principles of the Enlightenment that emerged in the seventeenth and eighteenth centuries and contemporary approaches to enlightenment. The study also emphasizes the role of enlightenment in fostering critical thinking, a scientific worldview, and spiritual development. Finally, it stresses the need to study enlightenment not merely as a rejection of scholastic thought but as a broader social, cultural, and philosophical phenomenon.

Keywords: *Enlightenment, education, philosophy, science, critical thinking, popularization, philosophy of education, new enlightenment.*

Masalaning bunday qo‘yilishi muayyan terminologik aniqlikni talab etadi. Aksariyat ilmiy, pedagogik va badiiy matnlarda, shuningdek, kundalik nutqda ham «ta’lim» va «ma’rifat» tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladi va shu tarzda tushuniladi. Ta’lim tizimini boshqaruvchi muassasalarning «Ta’lim vazirligi» yoki «Ma’rifat vazirligi» deb nomlanishi, shuningdek, nashriyotlar nomlarida ham ushbu atamalarning o‘zaro almashtirib qo‘llanilishi (masalan, «Ma’rifat» nashriyoti) bu holatni tasdiqlaydi.

Dastlabki qarashda mazkur masala faqat terminologik farq bilan bog‘liqdek ko‘rinishi mumkin. Biroq chuqurroq tahlil uning ancha murakkab ekanini ko‘rsatadi. Masalan, «ta’lim» va «ma’rifat» tushunchalari hamda ularning o‘zaro munosabati yuzasidan quyidagi savol tug‘iladi: «Har qanday ta’lim olgan, hatto oliy ta’lim muassasasini tamomlagan shaxsni ham keng ma’noda ma’rifatli deb hisoblash mumkinmi?».

Til va madaniyatga oid intuitiv tasavvurlar ayrim holatlarda «ta’lim» va «ma’rifat» tushunchalarining sinonim emasligini, ular o‘rtasida muayyan mazmuniy farq mavjudligini ko‘rsatadi. «Ta’lim» odatda rasmiy, tizimlashtirilgan va me’yoriy asosda tashkil etilgan bilimlar majmuini anglatsa, «ma’rifat» ta’limning yuqori sifat darajasini, shaxsning madaniy, axloqiy va intellektual kamolotini ifodalovchi kengroq tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi.

«Ma’rifat» tushunchasi shaxsning yuksak intellektual, axloqiy va madaniy rivojlanish darajasini ifodalaydi. U ko‘pincha «nur» arxetipi bilan bog‘lanib, «zulmat» tushunchasiga qarshi qo‘yiladi. Masalan, «zulmatdagi nur» yoki «jaholatga qarshi ma’rifat» kabi iboralar ma’rifatning inson va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ifodalaydi.

«Ta’lim» va «ma’rifat» tushunchalarining farqi hamda o‘zaro munosabati XVII–XVIII asrlardagi Yevropa ma’rifatparvarligi falsafasida yaqqol namoyon bo‘lgan. Ushbu davrda ta’lim faqat bilim berish vositasi sifatida emas, balki insonning ma’naviy va axloqiy kamolotini ta’minlash, uning jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Shu nuqtai nazardan quyidagi savol tug‘iladi: XVII–XVIII asrlardagi Yevropa ma’rifatparvarligi g‘oyalari zamonaviy ta’lim tizimida ma’rifat tushunchasini anglash uchun qay darajada dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi?

Falsafiy adabiyotlarda ma’rifat madaniy va ma’naviy hayotning muhim yo‘nalishi sifatida talqin qilinib, inson ongini diniy aqidalar yoki an’anaviy qarashlarga ko‘r-ko‘rona ergashishdan xalos etish, ularni aql va tanqidiy tafakkur asosida qayta baholashga qaratilgan jarayon sifatida izohlanadi. Bu tushuncha tarixda bir necha bor jamiyatning ma’naviy yuksalish bosqichini ifoda etgan. XVII–XVIII asrlarda Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan ma’rifatparvarlik harakati ana shunday umumiy tarixiy jarayonning yorqin namunasi hisoblanadi. Turli mamlakatlar va ijtimoiy muhitlarda mazkur jarayonning namoyon bo‘lish shakllari o‘zaro farq qilgan bo‘lsa-da, uning asosiy g‘oyaviy mazmuni umumiy xususiyatga ega bo‘lgan[1].

XVIII asr Yevropa ma’rifatparvarligi gumanizm, ratsionalizm, skeptitsizm, erkin fikrlash, diniy bag‘rikenglik, inson huquqlarini himoya qilish, an’anaviy hokimiyat va ijtimoiy munosabatlarni tanqidiy baholash, jamiyatni xurofot va johillikdan xoli etish hamda sog‘lom aqlga tayanish kabi g‘oyalarni ilgari surdi. Mazkur tamoyillar faqat XVIII asr ma’rifatparvarlik falsafasi doirasida emas, balki zamonaviy ma’rifatli shaxsni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, «ma’rifat» tushunchasi muayyan falsafiy oqim yoki tarixiy davr bilan cheklanmaydi. U turli jamiyatlarning ehtiyojlari va taraqqiyot darajasiga muvofiq shakllanib, pedagogik hamda madaniy konsepsiyalarga singib borgan va ilg‘or ta’lim-tarbiya tizimlarining ajralmas qismiga aylangan.

«Ma’rifat nima?» degan savol esa falsafa tarixida muntazam ravishda konseptual muhokama obyekti bo‘lib kelgan. Zamonaviy fransuz faylasufi Mishel Fuko bu masalaga quyidagicha yondashadi: «Biz qanday hodisani «ma’rifat» deb ataymiz? Bu hodisa bugungi fikrlash tarzimiz va amaliy faoliyatimizni ma’lum darajada belgilab bermaganmi?»[2]. Fukoning fikricha, «zamonaviy falsafa – bu ikki asr avval qo‘yilgan «Ma’rifat nima? » degan savolga javob izlashga intilayotgan falsafadir»[3].

Ushbu masalani tahlil qilar ekan, Rossiyaning nufuzli faylasuflaridan biri B.V.Markovning ta’kidlashicha, hozirgi davrdagi ma’rifat, eng avvalo,

[1] Краткая философская энциклопедия: Пер. с нем. – М.: Прогресс-Энциклопедия, 1994. – С. 369.

[2] Фуко М. Что такое Просвещение? // Фуко М. Интеллектуалы и власть: Часть 1: Пер. с фр. – М.: Праксис, 2002. – С. 335.

[3] Фуко М. Что такое Просвещение? // Фуко М. Интеллектуалы и власть: Часть 1: Пер. с фр. – М.: Праксис, 2002. – С. 335-359.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

gumanistik ta’lim bilan bog‘liqdir[4]. E.Fromm ham o‘z asarlarida quyidagi fikrni ilgari suradi: «Ma’rifatning vazifasi – insonlarga sivilizatsiyamiz yo‘l-yo‘riq beruvchi g‘oyalari va me’yorlarini singdirishdan iborat»[5]. Fransuz sotsiologi M.Krubele tomonidan yozilgan, nufuzli xalqaro gumanitar lug‘at[6]dagi «Ta’lim» maqolasida esa quyidagi mulohaza bayon etilgan: «Shunday savoldan qochib bo‘lmaydi: ta’lim ham boshqa ijtimoiy xizmatlar qatori oddiy xizmatmi yoki u ijtimoiy-iqtisodiy doiradan ancha kengroq bo‘lgan o‘ziga xos vazifani bajaradimi? Ta’lim insoniyatning eng yuksak yutuqlari haqidagi bilimlarni saqlab qolishga va ularga nisbatan hurmat uyg‘otishga, yoki hech bo‘lmaganda, avlodlar va madaniyatlar o‘rtasidagi murakkab vorislilik jarayonida ularni izlash uchun yo‘nalish berishga xizmat qilmaydimi?»[7].

Bizningcha, aynan ta’limning mazkur o‘ziga xos vazifasi «ma’rifat» tushunchasi orqali ifodalanadi.

Ma’rifat – zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimida ko‘pincha yetishmaydigan muhim jihatlardan biridir. Bu holat maktab ta’limiga ham, oliy ta’limga ham, shuningdek, xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimlariga ham xosdir. Shu bilan birga, ta’lim va tarbiya jarayonida ma’rifatni qanday amalga oshirish mumkin, degan savol ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon ta’limi tarixi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur masalaga tezkor va universal yechim topish mushkul. Har qanday davrda mavjud ta’lim tizimlari tanqid qilingan, jumladan, ularda «ma’rifat» deb ataluvchi jihat yetarli darajada namoyon emasligi ham qayd etilgan. Ko‘rinadiki, bu insoniyat madaniyatining «abadiy masalalari»dan biri bo‘lib, uni qandaydir yagona «texnologiya» yoki uslub orqali hal etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, ommaviy ta’lim sharoitida bu vazifa yanada murakkab tus oladi.

Avvalo, yosh avlodni kim ma’rifatli qilishi va bunga kim qodir ekani haqidagi savol tug‘iladi. Tabiiyki, boshqalarni ma’rifatli qilishga, eng avvalo, o‘zi yetarli darajada ma’rifatli bo‘lgan shaxs qodir bo‘ladi. Bunday ma’rifatparvarlar qatoriga, odatda, eng malakali maktab va oliy ta’lim muassasalari pedagoglari, ilm-fanni ommalashtiruvchi iqtidorli mutaxassislar, ilmiy bilimlarni xalqchil, ishonarli va ta’sirchan tarzda yetkaza oladigan olimlar, ilm-fan mavzularida ijod qiluvchi yozuvchi va jurnalistlar, shuningdek, yuksak madaniyat va ma’rifat sohiblari kiradi.

Ma’rifatga aylanuvchi bilimlarning mazmuni va tanlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Ko‘rinadiki, barcha uchun yagona va yetarli bo‘lgan majburiy ma’rifiy bilimlar majmuasini tuzishning imkoni yo‘q, garchi bunday urinishlar ko‘p uchrab tursa ham. Masalan, tavsiya etilgan kitoblar ro‘yxati, majburiy o‘qilishi lozim bo‘lgan adabiyotlar yoki o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan fanlar ro‘yxati shular jumlasidandir. Bunday loyihalarning eng qiziqarlilaridan biri Virjiniya universiteti professori B.D.Xirsh tomonidan yaratilgan «Madaniy savodxonlik» asari bo‘lib, unda zamonaviy amerikalik uchun zarur bo‘lgan asosiy bilimlar hajmini belgilashga harakat qilingan. Bizningcha, «madaniy savodxonlik» va «ma’rifatlilik» tushunchalari mazmun jihatidan o‘zaro yaqindir. Biroq turli madaniyatlar va davrlar uchun yagona hamda majburiy ma’rifiy «minimum» haqida so‘z yuritish mushkul. Masalan, qadimgi Yunonistondagi ma’rifat (madaniy yuksalish) talablari keyingi asrlardagi ma’rifat g‘oyalaridan muqarrar ravishda farq qilgan.

Odatda, XVIII asr Yevropa Ma’rifat davri haqida so‘z yuritiladi. Biroq, aniqroq aytganda, turli ma’rifat davrlari va turli zamonlarda yashagan alohida ma’rifatparvarlar haqida gapirish maqsadga muvofiqdir. Ma’rifat hodisasi, avvalo, inson ruhiyatida aqlning yangi nuqtai nazar va asosiy mezonga aylangan holatini anglatadi. Har qanday yirik madaniyat tarixida shunday bir bosqich bo‘ladiki, unda ilgari amal qilgan hayot va tafakkur an’analari qayta ko‘rib chiqiladi. Bu jarayonda avval to‘plangan tajriba tanqidiy baholanadi, an’anaviy avtoritetlar (muqaddas deb hisoblangan shaxslar va g‘oyalar) o‘rnini mantiqiy mulohaza egallaydi («Hammasini shubha ostiga qo‘y», – R.Dekart). Shu tariqa, yagona asos sifatida insonning o‘z aqli e’tirof etiladi («Ma’rifat – bu o‘z aqlingdan foydalanishni bilishdir», – I.Kant).

Hech qanday cheklovlarsiz faoliyat yurituvchi aql talablari ratsionallik tamoyillarida mujassam bo‘lib, universal ahamiyat kasb etadi. Natijada aql inson hayotining barcha sohalarida asos, mezon, yo‘l ko‘rsatuvchi va harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. Shu bois, qanchalik nufuzli yoki muqaddas

[4]Марков Б.В. Наука и жизненный мир // Наука и ценности / Под ред. М.С.Кагана и Б.В.Маркова. – Л.: ЛГУ, 1990. – С. 179-183.

[5]Фромм Э. Здоровое общество //Фромм Э. Здоровое общество. Догмат о Христе: Пер. с англ. М.: АСТ, 2005. – С. 6-414.

[6]Краткая философская энциклопедия: Пер. с нем. – М.: Прогресс-Энциклопедия, 1994. – 576 с.

[7]Крубелье М. Образование // 50/50: Опыт словаря нового мышления / Под ред. М.Ферро и Ю. Афанасьева. – М.: Прогресс, 1989. – С. 167-169

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

deb hisoblanmasin, har qanday g‘oya yoki qarash ratsional tafakkur oldida o‘z asoslanganligini isbotlashi lozim bo‘ladi («Endi haqiqat va yolg‘onni ajratib olish vaqti keldi», – J.B.Molyer).

Ma’rifat inson ruhiyatining yuksalishini ifodalaydi, aql-idrok esa uning timsoli va idealiga aylanadi.

Aqlning umumiy asos va universal mezonga aylanishga intilishi ba’zan haddan tashqari da’vodek ko‘rinishi mumkin. Inson hayotini tashkil etish nuqtai nazaridan qaralganda, bu fikr muayyan darajada asosli hamdir. Zero, hayotning barcha jihatlari va tashabbuslarini faqat ratsional asoslarga tayanib izohlab bo‘lmaydi, chunki inson tajribasida o‘z mohiyatiga ko‘ra noaniq va to‘liq anglab bo‘lmaydigan hodisalar ham mavjud. Shu bilan birga, aqlning bunday da’volari asossiz emas. Aksincha, ular madaniyat taraqqiyoti uchun nihoyatda samarali bo‘lib, shu bois ma’rifat davrlari mazkur g‘oyalarning yuksalishi va qudratining yorqin ifodasi sifatida insoniyat tarixida alohida o‘rin egallaydi.

Ma’rifat davri madaniyatga ulkan saboq beradi: u madaniyatni ratsionallikka, ya’ni aqlga asoslangan tafakkurga o‘rgatadi. Faqat ma’rifat davrini boshidan kechirgan jamiyatdagina ratsionallik barqaror va doimiy amal qiluvchi omil sifatida shakllanadi hamda bunday jamiyat telbalik va loqaydlik kabi holatlarga nisbatan muayyan ma’noda barqarorlikka ega bo‘ladi.

Har bir jamiyat ma’naviy qashshoqlikdan chiqishni, eng avvalo, xalqni ma’rifatli qilishdan boshlagan. Xususan, Hindistondagi ma’rifatparvarlik misolida kuzatilganidek, «G‘arbdagi rivojlanish jarayonlaridan farqli o‘laroq, Hindistonda ijtimoiy islohotlar va ma’rifatparvarlik bosqichlari ketmaket emas, balki bir vaqtning o‘zida kechgan. Hind faylasufi Sarvepalli Radhakrishnan jamiyatdagi ma’naviy qashshoqlikning asosiy sababini zulmga asoslangan tuzumda deb hisoblagan».

Shunday qilib, har qanday ma’rifat (yorug‘lik) davrining asosiy g‘oyasi aqlga tayanishdan iborat. Biroq aql tushunchasining o‘zi turli ma’rifat davrlarida har xil talqin qilingan. XVII–XVIII asrlardagi Yevropa ma’rifatparvarlari aql haqida so‘z yuritar ekanlar, uni xurofot va asossiz qarashlardan xoli, obyektiv haqiqatni anglashga yo‘naltirilgan hamda o‘zini ilmiy tadqiqot ideallariga muvofiq tashkil etuvchi tafakkur sifatida tushunganlar. V.S.Shvirev ta’kidlaganidek: «Ma’lumki, ratsionallikning oltin davri – yangi davr va ma’rifat davridir».

Biroq ilk ma’rifat davri bilan bog‘liq bo‘lgan qadimgi yunon faylasuf-ma’rifatchilari, ya’ni sofistlar, aqlga murojaat qilganlarida butunlay boshqacha mazmunni nazarda tutganlar. Ular ham avvalgi madaniy tajriba, ommaviy fikr va umume’tirof etilgan qadriyatlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqqanlar. Ammo ular uchun aql sohibi tabiatni qat’iy ilmiy usullar asosida o‘rganuvchi olim emas, balki hayotning muhim masalalari yuzasidan mustaqil nuqtai nazarga ega, uni himoya qila oladigan va boshqalarni o‘z fikrining to‘g‘riligiga ishontira oladigan fuqaro hisoblangan.

Sofistlarning antik ma’rifiy ratsionalizmi fuqarolik hayoti, ijtimoiy me’yorlar, urf-odatlar va axloqiy qoidalarni ratsional asosda tushuntirish zaminida shakllangan. Yunon ma’rifatidagi aql, avvalo, siyosiy va axloqiy aql bo‘lib, uning asosiy xususiyati erkin shaxsning o‘z manfaatlarini anglashi hamda ularni amalga oshirishda mazkur manfaatlarni boshqa fuqarolar va butun polis (shahar-davlat) manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olish qobiliyatidan iborat edi.

Antik davrda ma’rifatli inson – Homo Dicens («gapiruvchi inson») – nutq madaniyatiga ega, erkin muloqot qila oladigan, omma oldida nutq so‘zlash, o‘z qarashlarini himoya qilish, raqiblarining dalillarini rad etish va ishonchli hujjatlar keltirish qobiliyatiga ega shaxs sifatida tushunilgan. Shu bois miloddan avvalgi V asr o‘rtalarida ritorika (notiqlik san’ati)ning vujudga kelishi tabiiy hol edi. Ritorikaning asoschilari va haq evaziga ta’lim bergan dastlabki notiqlik ustozlari sofistlar – yunonlarning ilk ma’rifatparvarlari hisoblangan.

So‘zlay olish qobiliyati fikrlay olish qobiliyatidan ajralmasdir. Nutqning tuzilishi tafakkur mantig‘i bilan belgilanadi. Shu sababli dastlabki notiqlik ustozlari «sofistlar», ya’ni «donolar» deb atalgan. Gapirish, mulohaza yuritish, fikrlash va tushunish yagona intellektual jarayonning o‘zaro bog‘liq ko‘rinishlari hisoblangan. Ayniqsa, klassik davrda an’anaviy avtoritetlar mavqeining o‘zgarishi bu jarayonning ahamiyatini yanada oshirdi. Aynan miloddan avvalgi V asrda insoniyat tarixida ilk bor «aql davri» – yunon ma’rifatparvarligi davri boshlangan edi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Краткая философская энциклопедия: Пер. с нем. – Москва: Прогресс-Энциклопедия, 1994. – 576 с.
2. Фуко М. Что такое Просвещение? // ФукоМ. Интеллектуалы и власть: Часть 1: Пер. с фр. – Москва: Праксис, 2002.
3. Марков Б.В. Наука и жизненный мир // Наука и ценности / Под ред. М.С.Кагана и Б.В.Маркова. – Л.: ЛГУ, 1990.
4. Фромм Э. Здоровое общество //Фромм Э. Здоровое общество. Догмат о Христе: Пер. с англ. – Москва: АСТ, 2005.
5. Крубелье М. Образование // 50/50: Опыт словаря нового мышления / Под ред. М.Ферро и Ю.Афанасьева. – Москва: Про-гресс, 1989.
6. D. Po‘latova, M. Ahmedova, M. Qodirov, J. Sulaymonov, Sh. Shozamonov. Yangi va eng yangi davr sharq falsafasi. – Toshkent: Jahon print, 2013. – 332 b.
7. Kurtz P. The New Scepticism: Inquiry and Reliable Knowledge. Buffalo. – New York: Prometheus Books, 1992. – 360 p.

REFERENCES

1. Краткая философская энциклопедия: Пер. с нем. – Москва: Прогресс-Энциклопедия, 1994. – 576 с.
2. Фуко М. Что такое Просвещение? // ФукоМ. Интеллектуалы и власть: Часть 1: Пер. с фр. – Москва: Праксис, 2002.
3. Марков Б.В. Наука и жизненный мир // Наука и ценности / Под ред. М.С.Кагана и Б.В.Маркова. – Л.: ЛГУ, 1990.
4. Фромм Э. Здоровое общество //Фромм Э. Здоровое общество. Догмат о Христе: Пер. с англ. – Москва: АСТ, 2005.
5. Крубелье М. Образование // 50/50: Опыт словаря нового мышления / Под ред. М.Ферро и Ю.Афанасьева. – Москва: Про-гресс, 1989.
6. D. Po‘latova, M. Ahmedova, M. Qodirov, J. Sulaymonov, Sh. Shozamonov. Yangi va eng yangi davr sharq falsafasi. – Toshkent: Jahon print, 2013. – 332 b.
7. Kurtz P. The New Scepticism: Inquiry and Reliable Knowledge. Buffalo. – New York: Prometheus Books, 1992. – 360 p.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.